



The importance of teaching strategies and techniques in preparing students for professional pedagogical activities

Aropat NEGMATOVA¹

Andijan State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2023

Received in revised form

10 September 2023

Accepted 25 October 2023

Available online

15 December 2023

Keywords:

personalized learning,
identifying needs,
presenting strategies,
feedback and reflective
attitude.

ABSTRACT

The article describes educational strategies and techniques for preparing students for professional pedagogical activities, the conditions in the educational system for the use of strategies and techniques, working with educational regulations for students, the role of teachers and strategies in the formation of these skills.

2181-3663/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss6-pp51-57>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda o'rganish strategiyasi va texnikasining ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

individual o'rganish,
ehtiyojini aniqlash,
strategiyalarni taqdim etish,
q'ayta aloqa (Feedback) va
refleksiv munosabat.

Maqolada Oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, bu jarayonda bo'lg'usi pedagog o'rganish strategiyasi va texnikalari orqali kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish, strategiya va texnikalarni qo'llashda ta'lim tizimidagi shart-sharoitlar, talabada o'quv me'yoriy hujjatlar bilan faoliyat yuritish, bu ko'nikmalarni shakllantirishda pedagog va o'rganish strategiyalarini roli haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

¹ Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Pedagogy and Psychology Department, Andijan State Pedagogical Institute.

Значение стратегий и приемов обучения в подготовке студентов к профессионально-педагогической деятельности

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

индивидуальное обучение, выявление потребностей, представление стратегий, обратная связь и рефлексивная установка.

В статье описываются учебные стратегии и приемы, предназначенные для подготовки студентов к профессионально-педагогической деятельности, условия применения этих стратегий и приемов в образовательной системе, работа с учебными регламентами у учащихся, а также роль педагогов в формировании этих умений.

Jahon tajribasida talabalarda o'z mutaxassisligi bo'yicha zaruriy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ko'plab innovatsion tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Bu esa nafaqat ta'lim tizimi uchun, balki jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti uchun muhim bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'limning xalqarolashuvi sharoitida o'rganish strategiyalari va texnikalari doimiy dolzarbligini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi. Boshqa tomondan intellektual jamiyatda yosh mutaxassis kadrlarga bo'lgan malaka talablari tobora ortib bormoqda. Bu esa ulardan yangi innovatsion o'rganish strategiyalarini va texnikalarini o'rganishni taqozo etadi.

Oliy ta'limni modernizatsiya qilish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga o'tish kabi vazifalarni amaliy ijrosi talabalarda innovatsion o'rganish strategiya va texnikalarini rivojlanganligi bilan uzviy bog'liq.

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"[1]da Oliy ta'lim muassasalari talabalarining "mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari doimiy dolzarblik kasb etish bilan mazkur masala yuzasidan respublikamiz etakchi olimlaridan Q.M. Abdullaeva, A. Abdurahmonov, Z.Sh. Alimardonov, N.N. Karimova, N.A. Muslimov, A.A. Normatovlar tomonidan tadqiq etilgan. Hususan N.N.Karimovanning "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, N.A. Muslimovning "Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari"ni takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarida mazkur masala atroflicha yoritilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining bilim olishi jarayonida, ta'limning takomillashuvida ular o'zlarida turli o'rganish strategiyalari va texnikalarini rivojlantirib boradilar. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida buning ahamiyati yanada dolzarblik kasb

etib, kattalashib bormoqda. Talabanning o'z mutaxassisligini mukammal o'rganishi, davlat ta'lim standartlarida belgilangan malaka talablarini bajara olishi ko'p jihatdan o'rganish strategiyalari va texnikalariga bog'liq. Shuningdek, oliy ta'lim tizimiga kredit-modul tizimini tatbiq etilishi talabanning mustaqilligini ta'minlasa, boshqa tomondan o'quv jarayonini rejalashtirishda tashkilotchilik qobiliyati bo'lishini taqozo etadi.

Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarning pirovard maqsadi ham talabalarning innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'quv materiallari hamda metodlar yordamida yetuk mutaxassis qilib tayyorlashdan iborat. Talabanning o'rganish uchun sarflagan vaqti va o'rganish samaradorligi hamisha ham qoniqarli darajada bo'lmaydi. Bu esa talabalarning o'rganish strategiyalari va texnikalarini to'g'ri tanlay olmagan, boshqa tomondan professor-o'qituvchilarning yetarli ma'lumot bermagani bilan izohlanadi. Talabalarda o'quv jarayonida metodik kompetensiya rivojlanib boradi. O'rganish strategiyalari va texnikasi mazkur kompetensiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Talabalarning o'rganish strategiyasi va texnikasini rivojlantirish ularning bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyida ularning o'rganish strategiyasi va texnikasini rivojlantirishning muhim tomonlariga e'tibor qaratgan holda quyidagi jihatlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq, xususan:

Talabanning individual o'rganish ehtiyojini aniqlash: har bir fan yoki modul boshlanishidan oldin har bir talabanning o'rganish strategiyasini turli test, savolnoma yoki suhbat orqali aniqlashtirib olish lozim. Bu orqali har bir talabanning o'rganish tipi, kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlanadi. Professor-o'qituvchi uchun esa ehtiyojlarni aniqlash o'quv mashg'ulotlarini loyihalash uchun muhim ma'lumotlarni egallash uchun pedagogik shart-sharoit yaratib beradi. O'quv materiallari, metodlar, vositalar tanlashda o'rganish ehtiyojlari inobatga olinishi talabalar tomonidan fanni keng va chuqur o'rganishini ta'minlaydi.

O'qitishning mos usullarini tanlash: talabalarning o'rganish ehtiyojlari asosida nafaqat ta'lim metodlari, balki o'qitish uslublari va afzalliklariga moslashtirish mumkin. O'qitish uslublari sifatida vizual, auditiv yoki kinestetik uslublarni keltirib o'tish mumkin.

Ta'lim maqsadini belgilash: ta'lim maqsadi an'anaviy tarzda – ta'lim, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarini amalga oshiradi. Bu bir tomondan davlat va jamiyat buyurtmasini bajarishni o'z ichiga olsa, ikkinchi tomondan o'rganilayotgan fan negizlarini mustahkam o'zlashtirishga qaratiladi. O'rganish strategiyasi va texnikasi ta'lim maqsadlari mazmuniga singdiriladi va bu maqsadlarning aniq va real shart-sharoitda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bu esa talabalarning o'rganishda dinamik rivojlanishini hamda o'rganishga bo'lgan motivatsiyasining muntazamligini ta'minlaydi.

O'rganish strategiyalarini taqdim etish: professor-o'qituvchi tomonidan turli o'rganish strategiyalari va texnikalari aniq va ajratilgan holda o'rgatilishi lozim. O'rganish strategiyasi va texnikasi ko'p hollarda mazmunan bir birini takrorlash xususiyatiga ega bo'lganligi sababli, ularni tushuntirishda aniq chegaralash tavsiya etiladi. Keng tarqalgan o'rganish strategiyalari hisoblangan Mindmapping, vaqt menejmenti, faol tinglash, takrorlash, umumlashtirish kabi strategiyalar talabalarga o'rgatilishi orqali ular o'zlariga mos keluvchi va samarali deb hisoblagan o'rganish strategiyasini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Metakognitiv faoliyatni qo'llab-quvvatlash: professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarda o'z o'rganish jarayonini reflektiv baholash va nazorat qilish imkonini beruvchi metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash lozim bo'ladi. Talabalarning metakognitiv faoliyatini qo'llab-quvvatlash ularning fikrlash jarayonlarini tahlil qilish va mos o'rganish strategiyasi va texnikasini tanlashga turtki beradi.

Peer Learning (tengdoshlar bilan o'rganish): talabalarda o'rganish strategiyasi va texnikasini rivojlantirishda tengdoshlar bilan o'rganish ularda kognitiv mustaqillikni ta'minlagan holda bir-biridan o'rganish, o'z o'rganish jarayoniga munosabatni shakllantiradi, bu bilan bog'liq qiyinchiliklar va tushunmovchiliklarni birgalikda hal qilishida muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da "barcha oliy ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlari bo'yicha talabalar fikrini o'rganish (feedback) hamda o'zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilab boorish"ga alohida e'tibor qaratilgan.

Qayta aloqa (Feedback) va reflektiv munosabat: O'qituvchi tomonidan talabaning o'rganish strategiyasi va texnikasini rivojlantirish jarayoniga doir munosabati ularni shu jihatdan takomillashtirish va kamchiliklarini bartaraf qilishi uchun ahamiyatli. Shuningdek, talabaning o'zini-o'zi baholashga yo'naltirilgan suhbat ularda reflektiv munosabatlarni shakllantiradi. Muntazam ravishda qayta aloqa(feedback) va reflektiv munosabatlarni rivojlantirib borish natijasida talabalarda mustaqil ravishda o'rganish strategiyasi va texnikasini tanlash, moslashish va shu orqali natijaga erishishi osonlashadi. Jumladan reflektiv munosabatni shakllantirishga qaratilgan suhbat qo'llanilayotgan o'rganish strategiyalari va texnikalarini ta'sirchanligini oshirish bilan, mazmun mohiyati va ahamiyatini anglashga yordam beradi. Bu jarayon suhbat, savol – javob tariqasida amalga oshirilib, savollarni qo'yilishi ham tizimli va yo'naltiruvchi xarakterga ega bo'lishi lozim.

O'quv dasturlariga integratsiyalashuvi: o'rganish strategiyalari va texnikalari o'quv dasturlari mazmuniga singdiriladi. Bu esa pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun parallel o'quv dasturi vazifasini o'taydi. Parallel o'quv dasturi bir vaqtning o'zida fan o'quv dasturida keltirilgan mavzuni o'qitish va parallel ravishda ularning kasbiy, metodik hamda didaktik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida o'rganish strategiyalari va texnikalari o'rgatilib boriladi.

Quyida o'rganish strategiyalari misolida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati keltirib o'tilgan. O'rganish strategiyasi talabaning ta'limda muvaffaqiyatga erishish uchun juda muhim bo'lib, uning yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi va bu orqali bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyatga didaktik hamda metodik jihatdan tayyorgarlik samaradorligini ta'minlaydi. O'rganish strategiyasi faqat ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonida emas, balki shaxsning butun umr davomida o'rganishi, shaxsiy, kasbiy jihatdan rivojlanishi uchun ham zarur hisoblanadi [2].

SQRRR yoki **SQ3R** o'qib o'rganish strategiyasi bo'lib, u besh bosqichdan iborat: **tadqiqot, savol, o'qish, bayon etish va ko'rib chiqish**. Usul amerikalik faylasuf Francis F. Robinson tomonidan *Effective study* [3] (Samarali ta'lim) kitobida birinchi bor taklif qilingan [4].

O'qib-o'rganish strategiyasi o'qish va bu orqali o'rganishni talaba oldindan bilgan narsalar bilan bog'lab, anglash va tushunish qobiliyatidir. So'zlarning lug'aviy va kontekstual ma'nosini bilish [5], matn mazmuniga asoslangan qismlarining o'zaro bog'lanishini tushunish, matn tarkibidagi parchalar asosida xulosa chiqarish, matndagi asosiy fikrni aniqlash, berilgan savollarga matn asosida javob bera olish, matnda ishlatilgan ilmiy atamalarni tushunish, ilmiy gipotezalarni tasdiqlanishi, to'la yoki qisman inkor qilinishi, muallifning maqsadi, nuqtai nazarini anglashi va tushunishi, talabalarining diskurs-semantik qobiliyatini anglatadi [6].

SQ3R o'rganish strategiyasi ilmiy maqola va adabiyotlarni o'qib, o'rganishda samarali natija beradi. Bu strategiya dunyoning ko'plab davlatlarida keng qo'llaniladi. **SQ3R** o'rganish strategiyasi quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

SQ3R o'rganish strategiyasining tarkibiy tuzilmasi.

Tadqiqot (Survey – S)	Birinchi tadqiqot bosqichida maqola yoki kitob ko'zdan kechiriladi. Bunda maqola yoki kitob bir chekkadan o'qib chiqilmasdan, har bir bobdagi sarlavhalar, raqamlar, jadvallar, xulosaviy fikrlar kabi muhim jihatlarga e'tibor qaratiladi. Odatda tadqiqot bosqichi 3-5 daqiqa davom etadi. Tadqiqot bosqichida maqola yoki kitob bo'yicha asosiy ma'lumotlar beriladi. Talaba maqola yoki kitobdagi g'oyalarni aniqlashi va boblar bo'yicha savollarni shakllantirishi lozim bo'ladi.
Savol (Question – Q)	Talaba bu bosqichda tadqiqot bosqichida ega bo'lgan asosiy ma'lumotlarga, har bir bobdagi sarlavhalarga savollar tuzadi. Shuningdek, boshqa savollar ham shakllantiriladi. • <i>Bu bob nima haqida?</i> • <i>Ushbu bobda asosan umumiy mazmunning qaysi jihati yoritilgan?</i> • <i>Bu ma'lumot menga qanday yordam beradi?</i>
O'qish (Read – R¹)	Talaba faol o'qishni boshlash uchun S va Q bosqichlarida shakllangan ma'lumotlardan foydalanadi. Q bosqichidagi savollarga javob izlaydi. Faol o'qish deb aynan oldindan qat'iy qayd etilgan savollarga javob izlash uchun bo'lgan faoliyatga aytiladi. Passiv o'qishda esa maqola yoki kitobni biror savolga javob izlash uchun emas, balki shunchaki o'qiladi.
Bayon etish (Recite – R²)	Bu bosqichda talaba maqola yoki kitobni faol o'qish natijasida egallagan ma'lumotlarini boshqa bironvga so'zlab bergandek, xotiradan o'ziga aytib berishga harakat qilishi lozim. Talaba bayon etish bosqichida o'z so'zlaridan foydalanishi zarur bo'ladi. Q bosqichida shakllantirilgan savollarga javoblar aniqlashtiriladi. Bayon etish bosqichi og'zaki yoki yozma tarzda amalga oshirilishi mumkin. Yozma holatda amalga oshirilganda uzoq muddatli xotirani kuchaytiradi.
Qayta ko'rib chiqish (Review – R³)	Qayta ko'rib chiqish bosqichida talaba Tadqiqot bosqichida egallagan asosiy ma'lumotlar bilan solishtiriladi. Zarur holatda qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.

Keyinchalik ishlab chiqilgan shunga o'xshash o'rganish strategiyalari qatoriga PQRST va KWL diagrammasini keltirib o'tish mumkin.

PQRST o'rganish strategiyasi o'quv adabiyotlaridagi ma'lumotlarni o'qish va qayta ishlash uchun qo'llaniladi. Bu texnika 5 ta bosqichni qamrab oladi: oldindan ko'rish (Preview), savollar (Question), o'qish (Read), takrorlash (Self recitation) va tekshirish (Test) [7].

KWL diagrammasi ham o'rganish strategiyasi bo'lib, deyarli har qanday o'quv mavzusi uchun ishlab chiqilishi mumkin. Bu diagramma aqliy hujum va ovoz chiqarib o'qishda keng qo'llaniladi. KWL diagrammasi bu bilimlarni, savollarni va oxir-oqibat yangi olingan bilimlarni qayd qiluvchi grafik organayzer hisoblanadi. Mazkur KWL diagrammasidan oliy ta'lim muassasalari talabalari o'quv jarayonida ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib va bu ovoz chiqarib o'qishda diqqat-e'tiborni jamlash, yo'naltirish hamda ma'lumotlarni jamlash uchun samarali xizmat qiladi. Pedagogik

amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu o'rganish texnikasidan boshlang'ich ta'lim davrida ham qo'llash samarali natija beradi. KWL diagrammasi avvaldan ma'lum bo'lgan ma'lumotlar haqida fikr yuritish, yangi mavzuga qiziqish olib kelish va yangi ma'lumotlarni identifikatsiya qilishga yordam beradi. KWL diagrammasidan kichik guruhda ishlashda foydalanish tavsiya etiladi. Quyida KWL diagrammasi namunasi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. KWL diagrammasi

Know	Wonder	Learned

KWL diagrammasi uchta ustundan iborat bo'ladi.

K – Men nimani bilaman

W – Men nimani bilishni xohlayman

L – Men nimani o'rgandim

KWL diagrammasi quyidagi tartibda to'ldiriladi. Kichik guruhning bir a'zosi ilmiy maqola, matn yoki o'quv adabiyotida keltirilgan bir mavzuni ovoz chiqarib o'qiydi. Guruhdagi qolgan talabalar KWL diagrammasidagi ustunlarni mos ravishda to'ldirib chiqadi. K ustuniga o'qilayotgan ma'lumot tanish bo'lsa, mazkur ma'lumotlar qayd etiladi. W ustuniga qiziqish uyg'otgan ma'lumotlar, L ustuniga esa notanish bo'lgan ma'lumotlar qayd etiladi. Barcha talabalar KWL diagrammasini to'ldirib bo'lgach, shu diagrammalar bo'yicha suhbat tashkil etiladi. Bu o'rganish strategiyasi o'rganilgan ma'lumotlarni tizimlashni va bu orqali ilmiy tafakkurning tizimlashishiga erishiladi.

Keyingi davrda mazkur diagrammaning KW (H) L shakli ham amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Shuningdek KWHL diagrammasi ham mavjud bo'lib, bunda H ustuni qo'shilib, men qanday o'rganaman degan ma'noni bildiradi.

Talabaning ilmiy matnni o'qib, tushunish qobiliyatini rivojlanishi ma'lumotni qayta ishlash, tizimlash, ustuvorlik belgilay olish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi [8]. Agar talaba biror ilmiy atama ma'nosini bilmasa, u matnni qayta ishlash uchun juda ko'p vaqt sarflaydi. Talaba ilmiy matndagi tushunilmagan so'zlarni individual tarzda anglashga harakat qiladi. O'qib tushunish malakasini rivojlantirishga qaratilgan o'rganish strategiyalari talabalarda kollaborativ kompetensiyalarni ham rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratib berishi bilan muhim ahamiyatga ega.

KWHL yoki KWL diagrammasi talabalarda kollaborativ kompetensiyalarni shakllantirish bilan bir qatorda talabalarda jamoaviy hamfikir bo'lish, qabul qilingan qarorga nisbatan jamoaviy javobgarlik tuyg'ularini ham shakllantirishga yordam beradi. Talabalarda kollaborativ kompetensiyalarni shakllantirish bo'lg'usi soha mutaxassisi sifatida yangi jamoaga moslashish, jamoaviy qarorlar qabul qilishda mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini namoyon qilishlarida ham muhim ustuvorlikka ega.

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda o'rganish strategiyasi va texnikasi qayd etilgan kompetensiyalardan tashqari o'quv – me'yoriy hujjatlar bilan parallel faoliyat yuritish kompetensiyalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur

jarayonda DTS, malaka talablariga mos holatda o'quv va ishchi rejalar, o'quv va ishchi dasturlar, darsliklar, o'quv va o'quv uslubiy qo'llanmalar bilan ishlash ko'nikmalarini kompetensiyaviy holatda bo'lg'usi mutaxassisda shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezidentning 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. – Elektron resurs <https://lex.uz/docs/4312785>.
2. 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"
3. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"
4. Bremer, Rod. The Manual: A Guide to the Ultimate Study Method, Second, Fons Sapientiae Publishing, 20 January 2016.-p. 24-35
5. Robinson F. Effective study/ Harper; Revised Edition, 1991.- p. 278
6. Davis, F.B. Psychometrika (1944) 9: 185.
<https://doi.org/10.1007/BF02288722>. Committee on Learning Sciences: Foundations and Applications to Adolescent and Adult Literacy. Improving Adult Literacy Instruction: Options for Practice and Research. National Academies Press, 2012 — p. 41.
7. William Grabe. Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. Cambridge University Press, 2009.
8. Maryanne Wolf. Tales of Literacy for the 21st Century: The Literary Agenda. OUP Oxford, 2016. ISBN 978-0-19-103613-2.
9. Karimova N.N. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Avtoreferat ped.fan.fal.dok.-T. 2018.
10. Muslimov N.A Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari.: ped. fan.dok.diss.avtoref. – T.: TDPU. 2007.